e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/97srf704

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VILOYATI VETERINAR SHIFOKORLARINING XIZMAT SAFARLARI HAQIDA

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna
University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi, katta o‘qituvchi, (PhD).
e-mail: bazarboyevashohsanam@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0004-8087-111X

Annotatsiya.
Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda veterinariya xizmatining tashkil etilishi va faoliyati yoritilgan. Tadqiqotda, xususan, Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasining faoliyati arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Veterinar shifokorlarning uyezd va volostlarda olib borgan tekshiruvlari, xizmat safarlari hamda hisobot yuritish tartibi ochib berilgan. Chorva mollari orasida yuqumli kasalliklar, ayniqsa, qoramol vabosiga qarshi kurashish chora-tadbirlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, chorva mollarini ro‘yxatga olish, sanitariya holatini o‘rganish va kasalliklarni qayd etish jarayonlari tahlil qilingan. Veterinariya xizmatining moddiy-texnik ta’minoti, zarur asbob-uskunalar va tarjimonlardan foydalanish masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Arxiv hujjatlari asosida o‘sha davr veterinariya tizimining ma’muriy va amaliy faoliyatidagi ayrim muammolar aniqlangan. Maqola Turkistonda veterinariya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishda muhim manbaviy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Farg‘ona shahri, Toshkent shahri, veterinariya siyosati, veterinar shifokorlar, veterinar shifokorlarning xizmat safarlari, chorva mollari kasalliklari, qushxonalar, tadbirkorlar, mahalliy xalq.

О СЛУЖЕБНЫХ КОМАНДИРОВКАХ ВЕТЕРИНАРНЫХ ВРАЧЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Базарбаева Шохсанам Муратовна
Негосударственное высшее образовательное учреждение University of Business and Science, старший преподаватель (PhD).

Аннотация.
В данной статье рассматриваются организация и деятельность ветеринарной службы в Туркестане в конце XIX – начале XX века. В частности, на основе архивных источников анализируется деятельность ветеринарного управления Ферганской области. Раскрываются особенности проверок, проводившихся ветеринарными врачами в уездах и волостях, их служебных командировок, а также порядок ведения отчётности. Рассматриваются меры борьбы с инфекционными заболеваниями сельскохозяйственных животных, особенно с чумой крупного рогатого скота. Кроме того, анализируются процессы учёта поголовья скота, изучения санитарного состояния и регистрации заболеваний. Особое внимание уделяется материально-техническому обеспечению ветеринарной службы, использованию необходимого оборудования и привлечению переводчиков. На основе архивных документов выявлены отдельные проблемы административной и практической деятельности ветеринарной системы того периода. Статья имеет важное источниковедческое значение для изучения истории становления и развития ветеринарной службы в Туркестане.

Ключевые слова: Туркестан, город Фергана, город Ташкент, ветеринарная политика, ветеринарные врачи, служебные командировки ветеринарных врачей, болезни сельскохозяйственных животных, скотобойни, предприниматели, местное население.

ON THE OFFICIAL TRIPS OF VETERINARY DOCTORS IN THE FERGANA REGION IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna
University of Business and Science, Private Higher Education Institution, Senior Lecturer (PhD).

Abstract.
This article examines the organization and activities of veterinary services in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. In particular, the study analyzes the activities of the Veterinary Administration of the Fergana Region based on archival sources. It explores inspections conducted by veterinary doctors in uyezds and

ISSN 3060-5059 (Online)

volosts, their official trips, and the procedures for maintaining reports. Measures taken to combat infectious diseases among livestock, particularly rinderpest, are examined. The article also analyzes livestock registration, sanitary inspections, and disease recording procedures. Attention is given to the material and technical resources of veterinary services, the use of necessary equipment, and the involvement of interpreters. Based on archival documents, certain problems in the administrative and practical activities of the veterinary system during the period are identified. The article provides valuable source material for studying the history of the establishment and development of veterinary services in Turkestan.

Keywords: Turkestan, Fergana city, Tashkent city, veterinary policy, veterinary doctors, official trips of veterinary doctors, livestock diseases, slaughterhouses, entrepreneurs, local population.

Kirish. Turkistonning har bir viloyatida veterinariya boshqarmalari mavjud bo‘lib, ushbu boshqarmalar uyezd va volostlardagi veterinariya holatini o‘rganish uchun o‘z veterinar shifokorlarini vaqti-vaqti bilan hududlarga xizmat safariga yuborib turgan. Veterinar shifokorlarga hududlardagi veterinariya holati bo‘yicha maxsus xarita berilgan va ular ushbu xarita asosida o‘z faoliyatini olib borgan. Masalan, 1909-yil 10-iyunda Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi o‘zining veterinar shifokori Sutulovni uyezd va volostlarni o‘rganish uchun xizmat safariga yuborgan. Unga 6 varaqdan iborat xizmat safari rejasi berilgan. Ushbu hujjatda xizmat safarining vaqti va veterinariya tadqiqotlari olib boriladigan hududlar ko‘rsatilgan. Veterinar shifokor ushbu hujjat asosida xizmat faoliyatini olib borishi mumkin bo‘lgan. Shuningdek, shifokorlar xizmat safari so‘ngida ushbu hujjatlarni viloyat veterinariya boshqarmasiga topshirishi lozim edi. Agar veterinar shifokor ushbu hujjatni yo‘qotsa va uni qaytara olmasa, davlatga 3 so‘m 46 tiyin miqdorida jarima to‘lashi kerak bo‘lgan [1. 3-varoq].

MUHOKAMA

Sutulov veterinar shifokor sifatida Andijon uyezdiga xizmat safariga yuborilgan. Dastavval u qoida bo‘yicha uyezd boshlig‘i huzuriga borishi va o‘zini tanishtirishi lozim bo‘lgan. Shundan so‘ng uyezd boshlig‘iga o‘zining rejalarini qisqacha tushuntirib bergan. Shuningdek, u Andijon uyezdida chorvachilikka oid yig‘ilishda qatnashgan va unda veterinariya sohasi bo‘yicha ma’ruza qilgan. U uyezdning O‘zgan, Assen va Jalolobod volostlariga tashrif buyurgan. Shifokor bir yil mobaynida mazkur hududlarda veterinariya-sanitariya holati va chorvachilik munosabatlarini o‘rgangan [1. 3-varoq].

Aytib o‘tish lozimki, xizmat safariga yuborilgan shifokorlarga yo‘riqnoma berilgan va ular ushbu hujjat asosida faoliyat olib borgan. Agar veterinar shifokorga biriktirilgan hududlarda chorva mollarida yuqumli kasalliklar aniqlansa, kasallikning xususiyatiga qarab izolyatsiyalash (ajratish) choralari qo‘llanilgan va ularga qarshi kurash olib borilgan. Ayniqsa, qoramol vabosiga qarshi kurashish eng asosiy maqsad hisoblangan. Hatto Turkiston general-gubernatori bu borada maxsus farmon chiqargan hamda veterinar shifokorlar ushbu farmonning nusxasini har doim o‘zlari bilan olib yurgan. Agar qoramol vabosi tarqalsa, veterinar shifokorlar ushbu hujjatda ko‘rsatilgan ko‘rsatmalar asosida harakat qilgan. Shuningdek, mazkur davrda barcha hududlarda chorva mollari orasida bir xil turdagi kasalliklar uchragan va ular qoramol vabosiga nisbatan yengil hisoblangan. Mazkur kasalliklarga qarshi veterinar shifokorlar 1905-yilda qabul qilingan Tibbiyot politsiyasi ustavida belgilangan choralarni ko‘rgan [1. 4-varoq].

Arxiv manbalariga ko‘ra, hududlarga xizmat safariga yuborilgan shifokorlar har bir aholi punktini tekshirib, u yerdagi hayvonlar soni va ularning sanitariya holatini hisobotga kiritgan. Har bir volostda veterinar shifokor tekshirish ishlarini tugatgandan so‘ng, dalolatnomalar alohida varaqlar shaklida hisobotga ilova qilingan. Bunday ilovalar viloyat veterinariya boshqarmasiga topshirilgan [1. 4-varoq].

Agar hududlarda chorva kasalligi aniqlansa, veterinar shifokor quyidagi harakatlarni amalga oshirgan. Jumladan, chorva mollarida uchragan har bir kasallik bo‘yicha bayonnoma tuzgan va uni ilova tarzida hisobotga kiritgan. Shu bilan birga, veterinar shifokor ushbu kasalliklarga qarshi qanday choralar ko‘rganini bayon qilishi lozim bo‘lgan. Shu sababli u ko‘rgan chora-tadbirlar to‘g‘risida bayonnoma tuzgan [1. 5-varoq].

Xizmat safariga yuborilgan ko‘pgina shifokorlar mahalliy aholi tillarini bilmagan. Shu sababli ular o‘sha hududdan tarjimon yollash huquqiga ega bo‘lgan. Mazkur tarjimonlarga veterinariya boshqarmasi oyiga 3 so‘m miqdorida maosh bergan. Veterinar shifokorning vazifalaridan biri o‘zi yollagan tarjimon bilan mehnat shartnomasi tuzish bo‘lgan. Ushbu mehnat shartnomasida tarjimonning ism-sharifi va oylik maoshi miqdori ko‘rsatilgan.

Veterinar shifokorlar o‘rgangan hududlaridagi chorva holatini ro‘yxatga olishi lozim bo‘lgan. Bundan tashqari, Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining buyrug‘iga asosan, veterinar shifokorlar mahalliy hokimiyat organlaridan yuridik yordam so‘rash huquqiga ega bo‘lgan.

NATIJALAR

Umuman olganda, veterinar shifokorlar hududlarni o‘rganish davomida o‘zlari bilan quyidagi hujjatlarni olib yurishi majburiy bo‘lgan:

1. Chorva vabosi bo‘yicha majburiy nizom;
2. Chorva mollari epizootiyasini (hayvonlarda biror yuqumli kasallikning tarqalishi) to‘xtatish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qoidalar;
3. Chorva mollarida vabo kasalligini to‘xtatish bo‘yicha veterinariya-politsiya choralari to‘g‘risidagi bayonnoma shakli;
4. Haftalik va hududdagi chorva mollarining umumiy hisobotlari;
5. Chorva mollari vabo kasalligiga chalinganda kasallikka qarshi komissiyalar tuzish va ularni tugatish

ISSN 3060-5059 (Online)

to‘g‘risidagi dalolatnoma shakllari;

6. Volostlarni o‘rganish natijalari bo‘yicha xulosalar;
7. Hududlarda chorvani ro‘yxatga olish varaqasi;
8. Termometr.

Ushbu hujjatlar va asboblar veterinar shifokorlarning safarda nimalar bilan shug‘ullanganini yaqqolroq ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, veterinar shifokorlarga mustamlaka ma’muriyati tomonidan ko‘rsatmalar berilgan va mutaxassislar ushbu yo‘riqnoma asosida faoliyat olib borgan. Demak, veterinar shifokorlar hududlarda chorva kasalliklari aniqlansa, maxsus komissiya tuzish huquqiga ega bo‘lgan [1. 5-varoq orqasi].

Veterinar shifokorlar so‘ragan asboblar har doim ham ularga o‘z vaqtida yuborilmagan. Masalan, Zadgeshba ismli veterinar shifokor 1908-yilda Farg‘ona viloyatida bir qancha veterinariya kuzatuvlarini olib borgan. 1908-yil 24-iyunda uning qo‘lida faqatgina 10 dona ishlaydigan termometr borligini ma’lum qilgan, biroq mazkur termometrlar faoliyatini olib borish uchun yetarli bo‘lmaganini ta’kidlagan. Zadgeshba Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasidan qo‘shimcha termometrlar yuborishni so‘ragan, ammo 1908-yil noyabr oyiga kelibgina Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi unga 10 ta termometr yuborgan [3. 1-varoq].

Arxiv manbalari shuni ko‘rsatadiki, veterinar shifokorlar nafaqat asboblar, balki yozuv-chizuv uchun kerakli qog‘ozlarni ham so‘ragan. Xususan, 1908-yilda Eski Marg‘ilon shahrida K. Litvilov veterinar feldsher bo‘lib ishlagan. U 1908-yil 28-noyabrda Skobelev shahridagi veterinariya punktida qoramollar haroratini o‘lchash uchun 10 ta termometr, qushxonalarda nobud bo‘lgan qoramollar va mayda tuyoqli chorva mollari haqida xabar berish blankasi, yozuv qog‘ozlari, siyoh, bir quti pat hamda 1 dona qalam so‘ragan [3. 12-varoq].

Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi mahalliy aholidan qoramollarni ko‘rikdan o‘tkazganligi uchun ma’lum miqdorda pul yig‘imi olgan. Ushbu masala bo‘yicha ham Turkiston general-gubernatorligiga ma’lumot berib turilgan. Masalan, bunday ma’lumotlar Skobelev, Qo‘qon, Andijon, O‘sh va Namangan veterinariya punktlari tomonidan taqdim etilgan [4. 1-varoq].

Arxiv manbalariga ko‘ra, veterinar shifokor Sutulov 1909-yil 26-iyuldan boshlab Abdurahmon Husanovni o‘ziga tarjimon sifatida yollagan. Sutulov Abdurahmon Husanovga 3 so‘m oylik maosh bergan [1. 10-varoq]. Keyinchalik veterinar shifokor Sutulov Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasidan o‘zining xarajatlari va tarjimonga maosh to‘lash uchun ma’lum miqdorda pul yuborishni so‘ragan. Bunga javoban veterinariya boshqarmasi Skobelev g‘aznachiligi orqali unga 15 so‘m pul yuborgan. Sutulov ushbu puldan tarjimonga oylik to‘lagan va qolganini xizmat xarajatlari uchun sarflagan [1. 14-varoq orqasi].

1910-yil 28-yanvarda Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi veterinar shifokor Sutulovga Qo‘qon uyezdida ham veterinariya kuzatuv ishlarini olib borishni taklif qilgan. Sutulovgacha Qo‘qon uyezdida Landman va Nikol ismli shifokorlar faoliyat olib borgan. Ushbu veterinar shifokorlar Qo‘qondagi veterinariya holati bo‘yicha 17 betli hisobot yozgan. Biroq ushbu ikki veterinar shifokor Qo‘qon uyezdining barcha volostlarini tekshirishga ulgurmagan. Shu sababli Qo‘qon uyezdi boshlig‘i Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasidan veterinar shifokor so‘ragan edi [1. 17-varoq].

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida veterinariya xizmatining tashkil etilishi chorvachilikni nazorat qilish, hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish hamda hududlardagi epizootik holatni muntazam kuzatib borish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, Farg‘ona viloyati veterinariya boshqarmasi faoliyati misolida veterinariya tizimining hududiy boshqaruv, nazorat va hisob-kitob tamoyillari asosida shakllanganini ko‘rish mumkin. Viloyat veterinariya boshqarmalari o‘z tasarrufidagi uyezd va volostlarga veterinar shifokorlarni xizmat safariga yuborib, ularning faoliyatini maxsus reja, yo‘riqnoma va me’yoriy hujjatlar asosida tashkil etgan.

Arxiv hujjatlari veterinar shifokorlarning faoliyati faqatgina kasallangan hayvonlarni davolash bilan cheklanmaganini ko‘rsatadi. Ular xizmat safari davomida aholi punktlarini birma-bir tekshirgan, chorva mollarining sonini aniqlagan, ularning sanitariya holatini o‘rgangan, mavjud kasalliklar to‘g‘risida bayonnomalar tuzgan va ko‘rilgan profilaktik hamda sanitariya choralarini qayd etgan. Shu jihatdan, mazkur davrdagi veterinariya xizmati chorvachilik sohasini hisobga olish, monitoring qilish va kasalliklarning oldini olishni o‘zida mujassam etgan tizimli boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiq etilgan manbalarda qoramol vabosi kabi xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi kurash alohida o‘rin egallagan. Kasallik aniqlangan hududlarda hayvonlarni izolyatsiya qilish, maxsus komissiyalar tashkil etish, veterinariya-politsiya choralarini amalga oshirish va tegishli dalolatnomalarni rasmiylashtirish kabi tadbirlarning belgilangan tartib asosida olib borilgani aniqlangan. Bu esa Turkiston hududida epizootik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan ma’muriy-huquqiy mexanizmlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Veterinar shifokorlarning o‘zlari bilan majburiy nizomlar, yo‘riqnomalar, hisobot shakllari, chorva mollarini ro‘yxatga olish varaqalari va termometr kabi asboblarni olib yurishi ularning faoliyati qanchalik tartibga solinganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Milliy arxivi. – I-12-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish. – 3–17-varaqlar.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi. – I-12-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish. – 40-varaq.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi. – I-215-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish. – 1–12-varaqlar.
4. Xo‘jaxonov I. Farg‘ona vodiysi chorvador aholisining an’anaviy uy-joylari xususida // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2005. – № 2.